

PEDAGOGIK MAHORAT

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal

5-son (2021-yil, oktabr)

Jurnal 2001-yildan chiqa boshlagan

Buxoro – 2021

#5. 2021 PEDAGOGIK MAHORAT*ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ МАСТЕРСТВО*PEDAGOGICAL SKILL

Muyassar MAHMUDOVA. Oilaviy ziddiyatlarni boshqarish va bartaraf etish	150
Azamat NAZAROV. Boshqaruv qarorlarini qabul qilishning psixologik modellari va texnologiyalari	153
Xo'jageldi ALIMOV. Tasavvuf ahliga va asarlariga to'laqonli yondashuv	157
Nargiza G'AYIBOVA. O'smiring ijtimoiy-psixologik xususiyatlari shakllanishida sibling maqomining o'rni	159
Alisher JABBOR. Diniy ma'lumotlarni tushunish xususiyatlari shaxs kognitiv differentsiya mezonini sifatida	162
Mushtariy ISAYEVA. Oila funksiyalarining diniy-psixologik aspektlari	165
Sarvar QAXXOROV. Diniy mutaassiblik muammosining psixologiyada o'rganilganlik darajasi	169
M. AKRAMOV. Ekologik ong shakllanishini o'rganishning psixologik masalalari	171
Gulbarno SODIQOVA. O'smirlar mustaqil qaror qabul qilishida diniy-psixologik omillarining amaliy tadqiqi	174
Dildoraxon ULMASOVA. Emotsiyalarning o'ziga xos xususiyatlari hamda ularni boshqarishda emotsional intellektning roli	178
MAKTABGACHA VA BOSHLANG'ICH TA'LIM	181
Mohira TURDIYEVA. Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish modeli	181
Zulfizar YUSUPOVA, Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijtimoiylashuvida jismoniy tarbiyaning ta'siri	185
Махфуза САДУЛЛОЕВА. Семантический субъект предложения	188
FILOLOGIYA VA TILLARNI O'QITISH	191
R. YO'LDOSHEV, L. MIRJALOLOVA. Ona tilidan ayrim mashqlarni bajarishning interaktiv usullari ...	191
Roza NIYOZMETOVA. Asar qahramonlari insoniy fazilatlarini o'rganish vositasi sifatida	194
ANIQ VA TABIIY FANLARNI O'QITISH	197
Ubaydullo ARABOV, Hamza ESHONQULOV. Katta ma'lumotlar (big data)ni tahlil qilish usullari	197
I. Khushmurodova. Modern information resources in the electronic library	202
Sanjar MARDOV. Qurilish chizmachiligi fanini o'qitishda talabalar fazoviy tasavvurini grafik dasturlar asosida rivojlantirishning metodikasi	206
Qavmiddin OMONOV. Geometrik girixlar va sirlarning zamonaviy grafik dasturlar yordamida bajarib ta'lim jarayonida qo'llash	213
Раъно САЛОМОВА, Машхура УСМАНОВА. Развитие способностей учеников по системе обучения Маманазара Эргашевича Жумаева	216
Sayfulla NAZAROV, G'ayrat SHIRINOV, Sitorabonu JO'RAQULOVA. Kimyo darslarida interfaol jadvallardan foydalanish	220
Нодира АШУРОВА, Уткир ХАЗРАТОВ. Эффективность применения симуляционного обучения в медицинской практике студентов медицинских высших учебных заведений	224
Zarina MURODOVA, Firuza MURADOVA. Intellektual salohiyatga yo'naltirilgan topshiriq va masalalarni ishlab chiqish mexanizmi	228
G.I.SAYFULLAYEVA, S.X. MIRZAQANDOVA. Astronomiyadan laboratoriya mashg'ulotlarini o'tkazish jarayonini takomillashtirish orqali bo'lajak astronomiya o'qituvchilarining eksperimental kompetentligini rivojlantirish	235
TASVIRIY SAN'AT VA MUSIQA TA'LIMI	238
Qobil ABDULLAYEV, Manzura YULDASHEVA. "Avesto"dagi "Ashah vahishta" hamda "Yasa ahu vayryu" mantralari mazmuni va musiqiy ohanglari talqini	238
Maxmatmurod SHOMIRZAYEV, Kaxraman YULDASHOV. Milliy tarbiyada kashtachilikning o'rni	242
JISMONIY MADANIYAT VA SPORT	246
Jahon AXMEDOV. Sport umuminsoniy qadriyat hamda tarbiya vositasi sifatida	246
Rajab XALIMOV. Milliy kurash turlari va uni o'qitish metodikasi fanini o'qitishda qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari	251
Akram ABDULAXATOV, Farxod QULBULOV. Kurashchilar musobaqa faoliyatida: hujum, himoya, qarshi hujum va ogohlantirishlar	255
QUTLOV	258
Baqo UMAROV, O'ktam MARDONOV. Akademik N.A. Parpiyevning O'zbekistonda yaratgan koordinatsion birikmalar kimyosi ilmiy maktabi va uning istiqbollari	258
"Pedagogik mahorat" jurnali uchun maqolalarni rasmiylashtirish talablari	267

MAKTABGACHA VA BOSHLANG'ICH TA'LIM

Mohira TURDIYEVA
Buxoro davlat universiteti
maktabgacha ta'lim
kafedrası o'qituvchisi

SHAXSGA YO'NALTIRILGAN YONDASHUV ASOSIDA MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING IJODIY QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH MODELI

Maqolada maktabgacha ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini individuallashtirish, ta'limni bolaning yosh xususiyatlari, qobiliyati va talab-ehtiyojlari bilan moslashtirishning afzalliklari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, erta o'rganish, o'rganish, rivojlanish, maktabga tayyorlash, fikrlash, individuallashtirilgan yondashuv.

The article analyzes the advantages of individualization of the educational process in preschool education, adaptation of education to the age characteristics, abilities and needs of the child.

Key words: preschool education, early learning, learning, development, school preparation, thinking, individualized approach.

В статье анализируются преимущества индивидуализации образовательного процесса в дошкольном образовании, адаптации обучения к возрастным особенностям, способностям и потребностям ребенка.

Ключевые слова: дошкольное образование, раннее обучение, обучение, развитие, подготовка к школе, мышление, индивидуальный подход.

Kirish. Hozirgi zamonaviy dunyoda bolalar qaysi mamlakatda yashashidan qat'iy nazar, tez rivojlanayotgan jahonda qiyin hayot yo'lidan albatta o'tishlari kerak bo'ladi. Dunyo juda tez va shiddat bilan o'zgarayapti, yashash va mehnat sharoitlari o'zgarimoqda, ilmiy va texnik ixtirolar natijasida yangi kasblar va texnologiyalar paydo bo'layapti.

Asosiy qism. Zamonaviy dunyoda odamlar doimiy ravishda o'zgarishi, butun hayot davomida yangi narsalarni o'rganishi kerak. Bolajonlarni ushbu keskin o'zgarishlarga tayyorlash, hayot uchun zarur bo'lgan bilim va tajribasini boyitishga o'rgatishni erta yoshdan boshlashimiz kerak. Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv bolalarning real shaxsiy qiziqishlari va ehtiyojlari amalga oshiriladigan, bolalar tomonidan shaxsiy tajriba va bilimlar samarali to'planadigan ta'lim muhitini yaratishdan iborat. Erta ta'lim barcha millat va elat bolalari uchun muhim. Chunki, maktabgacha yoshdagi davr ta'lim bosqichidagi eng ahamiyatli davr sanaladi.

Ushbu maqolaning maqsadi - erta bolalik ta'limi va unda tarbiyachilarning mahorati va metodikasi haqidagi qarashlarni yoritishdan iborat. Tadqiqot natijalariga ko'ra maktabgacha davrda e'tibordan chetda qolgan bolalar maktabga borganlarida o'qishdan, o'rganishdan ortda qolishlari isbotlangan. Inson hayoti davomida o'rganishi mumkin bo'lgan ma'lumotlarning katta foizini maktabgacha ta'lim davrida o'rganishi allaqachon barchaga ma'lum. "Yoshlikda olingan bilim - toshga o'yilgan naqsh kabi"- degan naql bekorga aytilmagan. Maktabgacha yoshdagi bolalarning har tomonlama rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan pedagogik jarayon sodda, yosh guruhlariga mos va rang-barang bo'lishi lozim. Ta'lim-tarbiyaviy ishlarini muvaffaqiyatli amalga oshirilishi maktabgacha ta'lim muassasalaridagi pedagogik jarayonni, har bir faoliyat turini to'g'ri tashkil etishga bog'liq bo'ladi. Mashg'ulotlarda bolalarning dunyoqarashlarini har tomonlama, ham jismoniy, ham ma'naviy, ham ruhiy shakllantirish va rivojlantirish masalalarini asosiy maqsad sifatida belgilab olish hozirgi pedagoglar oldida turgan asosiy vazifalardan sanaladi.

"Maktabgacha ta'lim yoshi" va "bolalar bog'chasi" atamallari 3-7 yoshdagi bolalar ta'lim-tarbiyasini o'z ichiga qamrab oladi. Bolalar faoliyatini tashkil etishda unga eng yaqin yordamchilar ota-ona va maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisi hisoblanadi. Bolaning har tomonlama o'rganishi va rivojlanishi uchun puxta tayyorgarlik kerak bo'ladi. Tarbiyalanuvchi bolani kuzatish unga yordam berish uchun shu bola uchun mo'ljallangan ta'lim-tarbiya metodlarini ishlab chiqish zarur. Bolalarga ularning qiziqish va qobiliyatlarini hisobga olgan holda g'amxo'rlik qilish to'g'ri bo'ladi.

Bolaga ta'lim berish bo'yicha quyidagi uch omil mavjud:

- bolaning ushbu yosh guruhiga oid ma'lum bo'lgan bilimlarni e'tiborga olish;
- har bir bolaning shaxsiga oid ma'lumotlarni e'tiborga olish;

➤ bolani qurshab turgan ijtimoiy muhit va madaniy qadriyatlar haqidagi ma'lumotni e'tiborga olish.

Bugungi maktab bolasidan aniq bilimlarga emas, fikrlash ko'nikmasi, kattalar hamda tengdosh o'rtoqlarini tushunish, ular bilan hamkorlik qilish talab etiladi. Shuning uchun bolaning maktabga qadam qo'yayotganida nechog'li bilimga ega ekanligi emas, balki uning yangi bilimlarni egallashga tayyorligi, atrof-olamga moslashish ko'nikmasi, voqea-hodisani mustaqil ravishda tahlil etishi muhimroq hisoblanadi.

Bolani biror narsaga o'rgatishgina emas, unda o'z kuchiga ishonchni orttirish, o'z g'oyasini himoya qilish, mustaqil ravishda bir qarorga kelish ko'nikmasini shakllantirish ham muhimdir.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning maktab ta'limiga o'tishi hamisha uning hayoti, axloqi, qiziqish va munosabatlarida jiddiy o'zgarishlarni yuzaga chiqaradi. Shuning uchun maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabgacha ta'lim muassasasida yoki oilada maktab ta'limiga tayyorlash, uni murakkab bo'lmagan bilim, ko'nikma va malakalar bilan tanishtirish kerak bo'ladi. Bunday tanishtiruv moslashuv davrining jiddiy qiyinchiliklaridan xalos bo'lishga yordam beradi.

Bolalarni maktabda o'qishga tayyorlash hozirgi maktabgacha ta'lim muassasalaridagi ta'lim-tarbiya jarayonining butun sistemasi orqali amalga oshiriladi. Tayyorlov guruhi bolalarini maktabda o'qishga tayyorlash muhim o'rinni egallaydi. U maktabgacha bolalikni yakunlaydi va maktabda o'qishga o'tuvchi bosqich hisoblanadi. Ayni shu davrda bolalar xulq-atvori, faoliyatida ularning aqliy, ma'naviy-irodaviy va ko'tarinki sohalariga aloqador keyingi o'qitishlar uchun muhim bolgan xususiyatlar faol shakllanib boradi.

Tayyorlov guruhi tarbiyachisining asosiy e'tibori barcha bolalarning maktabgacha ta'lim dasturida nazarda tutilgan mazmunni to'liq egallab olishlariga qaratiladi, chunki bu maktab ta'limiga to'laonli tayyorlashning majburiy sharti hisoblanadi. Bolalarni maktabga tayyorlash vazifalaridan kelib chiquvchi katta guruhlardagi pedagogik jarayon o'ziga xosdir. Bu o'ziga xoslik maktabning ta'lim-tarbiya ishlaridan nusxa ko'chirishgina emas, balki bolalarning ularda maktabda muvaffaqiyatli o'qitish uchun zarur bo'ladigan sifatlarni og'ishmay shakllantirishga yo'llangan faoliyat va xulq-atvorlarini maxsus tashkil etilishidir. Tayyorlov guruhiga kelganda bolaning har xil faoliyatlarida: o'z-o'ziga xizmat qilishda, navbatchilikda, tabiat qo'ynidagi mehnatida mustaqil namoyon bo'la boshlaydi. Boladagi mustaqillik va tashkilotchilik qobiliyati tarbiyachining bevosita rahbarligida ularning hamma faoliyatlarida shakllantirilib boriladi. Nobel mukofoti laureati James Xakmon ta'kidlashicha, bolaning ta'lim-tarbiyasiga qanchalik erta e'tibor berilsa, ularning ta'lim olish qobiliyatlari va ijtimoiy-madaniy ko'nikmalari, masalan xarakteridagi barqarorlik, ishonchlik, bilim saviyasi shunchalik yuqori samaradorlikka olib keladi.

Maktabgacha ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan tub islohotlar maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim berishning shakl va usullarini erkin tanlash imkoniyatini yaratadi. Ta'lim sohasidagi asosiy natija bola tomonidan bilimlarni qay darajada o'zlashtirib olinganligi uning rivojlanishiga, shaxsda integrativ xislatlarning shakllanishiga qanchalik xizmat qilgani bilan belgilanadi.

Bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashda pedagog tomonidan tanlab olingan ta'lim uslublari intellektual jarayonlarning shakllanishiga muammolar yechimiga ijodiy yondashishga, tashabbuskorlikka, mustaqillikka va mas'uliyatga, o'z faoliyatini boshqara olishga o'rgatishi lozim.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashda quyidagi tamoyillar ustuvor hisoblanadi:

- ❖ shaxsga yo'naltirilgan yondashuv;
- ❖ individuallashtirilgan yondashuv;
- ❖ bolaga yo'naltirilgan ta'limiy yondashuv;
- ❖ pedagogning ilmiy-pedagogik- psixologik strategiyasi;
- ❖ rivojlantiruvchi yondashuv;
- ❖ ta'limning rivojlantiruvchi muhiti;
- ❖ o'yin faoliyati;
- ❖ inklyuziv ta'lim;
- ❖ pedagogik diagnostika ta'limi;
- ❖ ota-onalar bilan hamkorlikning istiqbolli shakllari.

Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv – bu pedagogning e'tiborini bolaning ajralmas shaxsiga, uning nafaqat intellektual qobiliyatlari va fuqarolik mas'uliyat hissini rivojlantirishga bo'lgan e'tiborini, balki hissiy, estetik, ijodiy moyilliklari va rivojlanish imkoniyatlariga ega bo'lgan ruhiy shaxsni rivojlantirishga qaratishdir. Ta'limning asosiy qadriyatining bunday e'tirof etilishi shaxsning o'ziga xos shakllanishidir. Biz har bir bolaga uning xususiyatlarini, hayotiy qadriyatlarini, intilishlarini aniqlash asosida o'zlarining rivojlanish yo'llarini tanlash huquqini berishimiz kerak. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim maktabgacha ta'lim konsepsiyasining nazariy jihatdan ustuvor tamoyillaridan biri hisoblanadi. Shaxsga ongli ravishda yondashishning maqsadi rivojlantirish, uni berilgan standart va bosim ostida "o'zgartirish emas", balki uni qanday bo'lsa, shundayligicha qabul qilish uchun sharoit yaratishni ko'zlaydi.

Bu tamoyilda - pedagog faoliyatining vositasi sifatida emas, balki uning shaxsiy tatbiq etish vositasi sifatida namoyon bo'ladi.

Bu jihat - pedagog bolaning ustidan hukmronlik qilishdan, uni nazorat qilish, zo'ravonlik, kuch ishlatishdan voz kechgan holda, tarbiyalanuvchiga uning xohishiga ko'ra erkin tanlash huquqini beradi.

Shaxsga yo'naltirilgan yondashuvni pedagoglar quyidagi tamoyillar asosida tashkil etishlari lozim:

O'zini namoyon qilish tamoyili. Har bir bolada o'zining intellektual, kommunikativ, badiiy va jismoniy qobiliyatlarini namoyon qilish ehtiyoji bor. Bolaning tabiiy va ijtimoiy qobiliyatlarini namoyon etish va rivojlantirish istagini rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlash juda muhimdir.

Individuallik tamoyili. Bola shaxsiyatining individual shakllanishi uchun sharoit yaratish ta'lim tashkilotining asosiy vazifasidir. Nafaqat bolaning individual xususiyatlarini hisobga olish, balki uning kelgusi rivojlanishiga har tomonlama hissa qo'shish kerak.

Subyektivlik tamoyili. Individuallik faqat subyektiv kuchlarga ega bo'lgan va ulardan faoliyat, aloqa va munosabatlarni qurish uchun mohirona foydalanadigan kishilarga xosdir. Bolaga guruh hayotidagi haqiqiy subyektiga aylanishiga, shaxsiy tajribasini shakllantirish va boyitishga hissa qo'shish kerak.

Tanlash tamoyili. Tanlovsiz bolaning individual xususiyatlari va subyektivlikni rivojlantirish, qobiliyatlarini namoyon qilish mumkin emas. Bola doimiy ravishda tanlashi, ta'lim jarayonini tashkil etishning maqsadi, mazmuni, shakllari va usullarini tanlashda subyektiv vakolatlariga ega sharoitda yashashi va tarbiyalanishi pedagogik jihatdan ma'quldir. Aynan buning uchun maktabgacha yoshdagi guruhlarda ochiq rivojlantiruvchi muhit (rivojlantirish markazlari) zarur.

Faoliyat, ijodkorlik va muvaffaqiyat tamoyili. Bolani muvaffaqiyatga undash kerak. Bu bolaning faol hayotiy pozitsiyasini rag'batlantirish maqsadida o'yin faoliyatiga kiritishdir. Bolaning o'yinida va samarali faoliyatida ijodkorlikka maksimal darajada yo'naltirish, o'z ijodiy faoliyatda tajribaga ega bo'lishi nihoyatda muhimdir. Shaxsiy va jamoaviy ijodiy faoliyat bolaning individual xususiyatlarini aniqlash va rivojlantirishga imkon beradi.

Ishonch va qo'llab-quvvatlash tamoyili. Pedagogik faoliyatni insonparvarlik, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim va tarbiya texnologiyalari bilan boyitish muhimdir. Bolaga ishonch, o'zini o'zi anglash va o'zining "men"ligiga bo'lgan intilishlarini qo'llab-quvvatlash, ortiqcha talablar va haddan tashqari nazorat o'rnatmaslik kerak. Tashqi ta'sirlar emas, balki ichki motivatsiya bolani o'qitish va tarbiyalashning muvaffaqiyatini belgilaydi.

Farqli yondashuv tamoyili. Tarbiyalanuvchilarning shaxsiyatini takomillashtirishda samarali pedagogik yordam vazifalari hal qiladi, tarbiyalanuvchilarning psixofizik, shaxsiy qobiliyatlari va imkoniyatlarini ochishga yordam beradigan maxsus pedagogik vaziyatlarni yaratishga yordam beradi. Bolaning tabiati, uning sog'lig'i, aqliy va jismoniy tuzilishi, qobiliyat va moyilliklari, idrokiga qarab rivojlanishidir.

Muhokamalar va natijalar. Bolalarning rivojlanish darajasini inobatga olgan holda, ularga qo'shimcha vazifalarni berish, alohida murakkab bo'lgan savollarni tuzish kerak. Diqqati tarqoq, tez hayajonlanadigan, shoshqaloq bolalardan pedagogning ko'rsatmalarini takrorlashni va tushuntirishdan oldin ularning e'tiborini jamlashni so'rash mumkin, ular bilan shaxsan muloqot qilish kerak. Masalan: "Bahromjon, Nurislom, bolajonlar diqqat bilan tinglang, keyin meni aytilganlarimni takrorlang". Bu juda sodda va ayni paytda samarali usul, chunki u bolalarning e'tiborini pedagogning ko'rsatmalariga qaratishga yordam beradi. Shu sababli bolalarga topshiriqni eslab qolishlariga yordam berish bilan birgalikda, shoshilinch, o'ylamasdan javob berishning oldini oladi va bolalarni topshiriq va ko'rsatmalarni yaxshi o'zlashtirishlariga sabab bo'ladi.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim modelining ijobiy tomonlarini yanada yaqqolroq ko'rish uchun biz uni an'anaviy ta'lim bilan taqqoslab ko'ramiz:

An'anaviy yondashuv

Bolalik – bu bolani kelajakdagi hayotga tayyorlash bosqichidir. Maktabgacha ta'limning asosiy vazifasi bolani maktabga tayyorlashdir.

Bolaga manipulyativ yondashuv.
Kattalarning shiori: "Sen ham shunday qil!"

Barcha uchun umumiy, yagona va majburiy psixik rivojlanish.

Rivojlanish vektori o'rnatilgan.

Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv

Maktabgacha yoshdagi bolalikni inson hayotidagi noyob davr sifatida tan olish. Maktabgacha ta'lim tashkilotining asosiy vazifasi bolaning hayoti va sog'lig'ini saqlashdir.

Bolaga hamkorlik sharoitida teng huquqli sherik sifatida qaraladi. Kattalar bolaning manfaatlaridan va uning kelajakdagi rivojlanishidan kelib chiqadi.

Har bir bola o'zining rivojlanishida individualdir.

Ta'lim rivojlanish yo'nalishini aniqlamasdan, balki bu uchun barcha zarur sharoitlarni yaratadi.

Tarbiya xatti-harakatlarini to'g'rilash yoki cheklovlar, "takliflar" orqali qoidalardan chetga chiqishning oldini olishga qaratilgan.

Muloqotning ustuvor usullari: ko'rsatma, eslatma, cheklov, jazolardan iborat. O'zaro ta'sir taktikasi: diktatura va vasiylik.

Kattalar o'zi bolalar o'rtasidagi nizolarni hal qiladi: haqni qo'llab-quvvatlaydi va aybdorlarni jazolaydi.

Kattalar barcha bolalarga belgilangan bilim va ko'nikmalarni o'rgatadi. Ishonch: bola kattalarning bevosita nazorati ostida yaxshiroq va ko'proq narsani o'rganadi. Kattalar tajribasini o'rganish – rivojlanishning eng yaxshi usuli.

Kattalar bolalarning ish natijalarini baholaydi, xatolarini qayd etadi va tuzatadi.

Mashg'ulotlarni o'tkazishda hukmronlik usuli kattalarning bolaga bevosita ta'siri, o'zaro savol-javob shakli.

Ta'limda "o'rtacha" bir bolaga bilim miqdoriga mo'ljallangan didaktik materialdan foydalaniladi.

Xulosa qilib aytganda, shaxsga yo'naltirilgan yondashuv - o'ta muhim masala, chunki yondashuv qay darajada individual bo'lsa, har bir bola shu darajada mo'ljaldagi ta'lim natijalariga erishishning ehtimoli ortadi va shu tufayli dasturning amalga oshirilishi oson kechadi. Muayyan fan bilan bog'liq muammolar kamayadi, o'zlashtirilgan bilim va ko'nikmalar oshadi. Individuallashtirish ta'lim jarayonini bolaning yosh xususiyatlari, qobiliyati va talab-ehtiyojlari bilan moslashtirish imkoniyatini beradi. Bu jarayonda bolalarning bilim doirasi kengayib, o'ziga nisbatan hurmat oshadi. Ularda yanada murakkabroq masalalarni hal etishga tayyorgarlik hissi paydo bo'ladi.

Bolani insoniy qadriyatlar dunyosi bilan tanishtirishga yordam berish. Yaxshi xulq-atvorni rag'batlantirish va salbiy baholashni e'tiborsiz qoldirish.

Muloqot usullari bolaning pozitsiyasini egallashni, uning nuqtayi nazarini hisobga olishni va uning his-tuyg'ulariga e'tibor berishni talab qiladi. O'zaro ta'sir taktikasi – hamkorlik.

Kattalar bolalar o'rtasida yuzaga keladigan ziddiyatli vaziyatlarni muhokama qilishga va mustaqil ravishda ularni hal qilish yo'llarini izlashga undaydi.

Kattalar har bir bolaning o'z tajribasini samarali to'plashga hissa qo'shadi. Ishonch: bola tashqi dunyo bilan o'zaro munosabatlar jarayonida mustaqil ravishda o'rganadi. To'liq va o'z vaqtida rivojlanish uchun eng muhim narsa bu o'z tajribasini o'rganishdir.

Kattalar bolalarni o'zlarining ishlari natijalarini mustaqil ravishda baholashga va xatolarni tuzatishga undaydilar.

Bevosita ta'lim – bu ta'lim faoliyatini tashkil etishning asosiy shakli emas. Ta'limning eng samarali usullaridan biri bu o'yin, tajriba o'tkazish. Har xil turdagi faoliyatlarni birlashtirish.

Didaktik material har bir bolaning rivojlanishi va qobiliyatiga mos ravishda ishlatiladi.

Adabiyotlar

1. Turdieva M. J. The essence of organizing the process of preschool education and education on the basis of an individual approach //International Engineering Journal For Research & Development. – 2021. – T. 6. – №. SP. – C. 3-3.
2. Turdieva M. J., Olimov K. T. Game Technologies As An Innovative Type Of Student-Centered Education //The American Journal of Social Science and Education Innovations. – 2021. – T. 3. – №. 02. – C. 183-187.
3. Turdiyeva M.J., Islomova M. I. Q. A model for developing the creative abilities of preschool children based on a person-centered approach //Builders Of The Future. – 2021. – C. 10-14.
4. Турдиева М. Д. Инновационный подход к дошкольному образованию //Проблемы науки. – 2021. – С. 71.
5. Juraqulovna T. M. et al. Types of person-centered technology in the educational process //E-Conference Globe. – 2021. – C. 105-107
6. Rasulova L. G. Formation Of Abilities And Skills In Measuring Activity In Preschoolers //The American Journal of Social Science and Education Innovations. – 2021. – T. 3. – №. 02. – C. 363-369.
7. Рахмонова Г. Ш., Чоршамова А. Ф. К. Значимые стороны национальных игр в процессе воспитания дошкольников //Проблемы педагогики. – 2020. – №. 1 (46).
8. Гафурова Д. Х. Роль Детской Литературы В Развитии Детей Дошкольного Возраста //Academy. – 2020. – №. 12 (63).
9. Temirovna O. L., Chorievna R. L. Methodology to organize independent work of students in mathematics lessons in primary school //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2020. – T. 10. – №. 10. – C. 387-393.